



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 434 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмурадович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar)	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции.....	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов.....	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета.....	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Анализ разработки женских коллекций с использованием стилистических и конструктивных особенностей ретро-моды	329
<i>Абдурахманова Н., Рахматуллаева У. С.</i>	
Использование современных образовательных технологий в начальной школе как средство развития познавательной активности учащихся	333
<i>Фазилова Гулчехра Ахмедовна</i>	
Nyuman (Newman) xatolar tahlili modelining geometrik isbotlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati.....	337
<i>Davletov Davronbek Egamberganovich</i>	
"Informatika" fani mavzularini taksonomik yondashuv asosida o'qitish	343
<i>Axrarov Baxtiyor Sagdullayevich</i>	
O'qituvchi faoliyatida pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash metodikasi.....	347
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Rus-o'zbek tarjimashunosligining zamonaviy tendensiyalari.....	351
<i>Kudratov Kamoljon Islomovich</i>	
Kompyuterga qaramlikning o'smirlarga ta'siri va uning psixologik oqibatlari.....	356
<i>Kushakova Nargiza Islambayevna, Ergasheva Sarvinoz Shavqiddin qizi</i>	
Musiqaning neyropsixologik rivojlanish va ta'lim jarayonidagi ahamiyati	360
<i>Xikmatova Shohida Xikmatovna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish	364
<i>Alimardanova Sitara Ikrom qizi</i>	
Comparative and Conceptological Trends in Linguoculturology	367
<i>Ablakulov Ilkhom</i>	
Boshlang'ich ta'limda kreativ ta'lim muhitini rivojlantirish asosida o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish	370
<i>Abdullayeva Ujalg'as</i>	
Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sun'iy intellektdan foydalanish usullari.....	373
<i>Aglamova Shahzoda Sobirovna</i>	

MUNDARIJA SOÐERJAHNIE CONTENTS

Bokschi qizlar texnik harakatlarining kinematik ko'rsatkichlar asosida takomillashtirish metodikasi.....	378
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
O'quv jarayonida formativ baholashning evolyutsion-xronologik tahlili	383
<i>Davidova Dilnoza Tadjibayevna</i>	
Oliy ta'limda "Smart Education" texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi	388
<i>Dilrabo Amriddinova, Abdulxalilova Surayyo Ahad qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini baholash kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	392
<i>Majidova Hilola Eshquvat qizi</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish usullari.....	396
<i>Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Xolmirzayeva Zebo Ravshan qizi</i>	
Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport marketologi faoliyatiga tayyorlashning zarurati	402
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	
O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida strategik boshqaruvni takomillashtirish.....	406
<i>Saydullayeva Nargis</i>	
Integrating Literary Texts Into Early Foreign Language Education: A Mixed-Methods Investigation of Lexical, Cognitive, and Affective Outcomes in Primary Classrooms	410
<i>Shukurova Zamira Shodiyevna</i>	
Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodik modeli.....	416
<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kichik motorikasini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati va individual yondashuv	421
<i>Norboyeva Laylo Sapar qizi</i>	
Психологические особенности проявления творческих способностей у подростков, воспитывающихся в бикарьерных семьях.....	425
<i>Ишбобоева Гулбарчин Рустамовна</i>	

KOMPYUTERGA QARAMLIKNING O'SMIRLARGA TA'SIRI VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI

UDK 159.922.8:004.738.5



Kushakova Nargiza Islambayevna

Nizomiy nomidagi O'zMU

Amaliy psixologiya kafedrası PhD, dotsent v.b.

Ergasheva Sarvinoz Shavqiddin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMU

Amaliy psixologiya kafedrası 2-kurs magistr talabasi

Annotatsiya: O'smirlar orasida kompyuter va internet texnologiyalaridan ortiqcha foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan psixologik o'zgarishlar, xususan, hissiy sohadagi salbiy holatlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi kompyuterga qaramlikning o'smirlarda stress, xavotir, emotsional beqarorlik hamda ijtimoiy chekinishga ta'sirini o'rganishdan iborat. Shuningdek, mazkur muammoning oldini olishga qaratilgan psixologik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kompyuterga qaramlik, o'smirlik davri, hissiy soha, internet qaramligi, psixologik holat, stress, xavotir, emotsional rivojlanish.

Abstract: Psychological changes occurring among adolescents as a result of excessive use of computer and internet technologies, particularly negative conditions in the emotional sphere, are scientifically analyzed. The scientific novelty of the research lies in examining the impact of computer addiction on stress, anxiety, emotional instability, and social withdrawal among adolescents. In addition, psychological recommendations aimed at preventing this problem have been developed.

Key words: computer addiction, adolescence, emotional sphere, internet addiction, psychological condition, stress, anxiety, emotional development.

Аннотация: Психологические изменения, возникающие у подростков в результате чрезмерного использования компьютерных и интернет-технологий, в частности негативные состояния в эмоциональной сфере, подвергаются научному анализу. Научная новизна исследования заключается в изучении влияния компьютерной зависимости на уровень стресса, тревожности, эмоциональной неустойчивости и социальной изоляции подростков. Кроме того, разработаны психологические рекомендации, направленные на профилактику данной проблемы.

Ключевые слова: компьютерная зависимость, подростковый возраст, эмоциональная сфера, интернет-зависимость, психологическое состояние, стресс, тревожность, эмоциональное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda kompyuter hamda internet inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, o'smirlar orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining ortib borishi ularning psixik rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi internet infratuzilmasini takomillashtirish, axborot resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda yoshlarning zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, ta'lim



tizimida elektron axborot resurslarini keng joriy etish, yoshlarning kompyuter savodxonligini oshirish hamda axborot makonidagi faolligini kuchaytirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Nazorat qilinmagan va me'yoridan ortiq foydalanish esa kompyuterga qaramlik holatini yuzaga keltirmoqda. Kompyuterga qaramlik o'smirlarda emotsional zo'riqish, tajovuzkorlik, depressiv holatlar, kommunikativ muammolar va ijtimoiy moslashuvning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli mazkur muammoni psixologik jihatdan o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Psixolog L.S. Vygotskiy bu holatni "psixik rivojlanishdagi inqiroz" sifatida izohlagan bo'lib, u o'smir shaxsida ichki o'zgarishlar va tashqi muhitga moslashuv jarayonlari o'rtasidagi ziddiyatlar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi^[8]. Kichik maktab yoshidan keyin bola shaxs sifatida o'zini anglash va o'ziga munosabatni shakllantirish jarayoniga kiradi.

Tadqiqot obyekti: Toshkent shahri Sergeli tumani 134-maktab 8-sinf o'quvchilari; Navoiy viloyati Karmana tumani 12-maktab 8-sinf o'quvchilari.

Tadqiqot predmeti: Kompyuterga qaramlikning o'smir hissiy sohasiga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot maqsadi: Kompyuterga qaramlikning o'smir hissiy sohasiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarni o'rganish.

Tadqiqot vazifalari:

1. O'smirlik davrining rivojlanish va hissiy xususiyatlarini tahlil qilish;
2. O'smirlarda kompyuterga qaramlik darajasini psixodiagnostik metodlar asosida aniqlash;
3. Kompyuterga qaramlik va hissiy holat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;
4. Kompyuterga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan psixokorreksion tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda Xayrullayeva, J.B. Egamberdiyev, A.A. Fayzullayev, A.A. Jabborov, N.B. Xakimova, Olim A. Ravshanov, M.G. Davletshin, E. G'oziyev, B.R. Qodirov, V. Karimova, G.B. Shoumarov va R. Sunnatovalar, F. M. Majidova, N.M. Sharopov, Moxira O. Dedaxonova, D.H. Yormatova hamda R.N. Melibayeva tomonidan yoshlar psixologiyasi, internet va kompyuter texnologiyalarining shaxs rivojlanishiga ta'siri, o'smirlarning emotsional holati, axborot xurujlari va virtual muhitning psixologik oqibatlarini bilan bog'liq ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda kompyuter va internetga qaramlik muammosi keng o'rganilgan. Xususan, Young internet qaramlligini mustaqil klinik muammo sifatida asoslab bergan bo'lsa, Griffiths uni xulq-atvor addiksiyasining bir turi sifatida izohlaydi. Zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan, Kuss va Twenge o'smirlar orasida internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi ularning hissiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Turkle esa raqamli muhitning inson muloqoti va emotsional yaqinligiga ta'sirini tahlil qilib, texnologiyalar shaxslararo munosabatlarni o'zgartirayotganini qayd etadi.

Tadqiqot metodlari tavsifi: K. Youngning "Internetga qaramlik testi" o'smirlarda internet va kompyuterga qaramlik darajasini aniqlash uchun foydalanildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Internetga qaramlikning mavjudligini aniqlash so'rovnomasi" amerikalik psixiatr va internetga qaramlikni aniqlash bo'yicha xalqaro ekspert Kimberli Yang tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu so'rovnoma Farg'ona davlat universitetining Psixologiya kafedrasida o'qituvchilari D.M. Nuraliyeva, L.Y. Abduqodirova va B.Sh. Butayev tomonidan o'zbek mentalitetiga moslashtirilgan. Bugungi kunda ushbu psixodiagnostik so'rovnomadani dunyoning turli mamlakatlarida shaxslardagi internetga bo'lgan qaramlik darajasini tashxislash maqsadida foydalaniladi.

K. Young ta'kidlashicha, internetga qaramlik insonning kundalik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, vaqtni nazorat qilishning buzilishi va virtual muhitga kuchli psixologik ehtiyoj bilan tavsiflanuvchi addiktiv holatdir. Internetga qaram shaxslarda internetdan foydalanish ustidan nazoratning susayishi, real ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashish, emotsional zo'riqish hamda kommunikativ muammolar kuzatiladi.

Ayniqsa, o'smirlik davrida bu holat shaxsning psixologik rivojlanishiga, hissiy sohasiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nazariy manbalar tahliliga ko'ra, internetga qaramlikning shakllanishida bir qator psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, past o'z-o'zini nazorat qilish, emotsional beqarorlik, yolg'izlik hissi, stressli vaziyatlardan qochishga intilish hamda virtual muloqotni real muloqotdan ustun qo'yish qaramlik rivojlanishining asosiy omillari sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, internet muhitidagi anonimlik, cheklanmagan axborot oqimi va virtual rag'batlantirish mexanizmlari o'smirlarning internetga psixologik bog'lanishini kuchaytiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda respondentlarning internetdan foydalanish darajasi maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma yordamida o'rganildi. Natijalar N = 60 nafar respondent asosida tahlil qilindi (quyidagi diagrammada aks etgan).

Tadqiqotda jami 60 nafar respondent qatnashgan bo'lib, ularning internetdan foydalanish darajasi quyidagicha taqsimlangan:

- 52 % (31 nafar) respondentda yuqori daraja (qaramlik darajasi) 80–100 ball oralig'ida aniqlandi;
- 32 % (19 nafar) respondentda o'rta daraja 50–79 ball oralig'ida qayd etildi;
- 16 % (10 nafar) respondentda me'yoriy daraja 20–49 ball oralig'ida kuzatildi.



52 % respondentlarda yuqori daraja (qaramlik darajasi) 80–100 ball oralig'ida aniqlandi. Bu guruh internetdan haddan tashqari ko'p va nazoratsiz foydalanishi bilan tavsiflanadi. Ularning ko'pchiligida internetdan foydalanish "addiktiv xulq-atvor" shakliga o'tgan bo'lib, bu holat ijtimoiy devyatsiya, ruhiy kuchlanish, o'qish samaradorligining pasayishi va oilaviy munosabatlardagi muammolarga olib kelishi mumkin.

32 % respondentlarda o'rta daraja (50–79 ball) qayd etildi. Bu shaxslar internetdan faol foydalanadilar, ammo hali to'liq qaramlik darajasiga yetmagan. Ular uchun internetdan foydalanish qisman muammoli xarakterga ega bo'lib, kelajakda qaramlikka o'tish xavfi yuqori hisoblanadi.

16 % respondentlarda esa me'yoriy daraja (20–49 ball) kuzatildi. Bu guruh internetdan asosan maqsadli, tartibli va o'z vaqtini boshqara oladigan tarzda foydalanadi. Ularning faoliyati ish, o'qish va shaxsiy qiziqishlari bilan muvozanatli ravishda birlashtirilgan.

Internetga qaramlikning kelib chiqishiga bir qancha omillar sabab bo'ladi. Psixologik omillar orasida yolg'izlik, o'ziga ishonchsizlik, depressiv kayfiyat, stress va emotsional qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj muhim o'rin tutadi. Oila muhitidagi nosog'lom munosabatlar, ota-onaning yetarli e'tibor bermasligi yoki nazoratning sustligi ham o'smirning internetga haddan tashqari bog'lanishiga olib keladi. Bundan tashqari, tengdoshlar ta'siri, ijtimoiy tarmoqlarda mashhurlikka intilish va zamonaviy texnologiyalarning keng ommalashuvi ham ushbu muammoni kuchaytiradi. O'smirlik davrida nerv tizimi va hissiy soha hali to'liq shakllanmaganligi sababli, ular virtual muhit ta'siriga tez beriluvchan bo'ladi.

Internetga qaramlik o'smir psixikasida turli salbiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Eng avvalo, hissiy sohada emotsional beqarorlik kuchayadi. O'smirda jahldorlik, asabiylik, stress va xavotir holatlari tez-tez kuzatiladi. Internetdan uzoqlashgan paytda bezovtalik va ichki zo'riqish paydo bo'ladi. Ba'zi hollarda tushkunlik, yolg'izlik hissi va depressiv holatlar shakllanadi. Bundan tashqari, internetga qaram o'smirlarda tajovuzkorlik va kayfiyatning keskin o'zgarishi kuzatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalarining tahlili o'smirlarning ma'lum qismida internetdan foydalanish me'yoringing yuqoriligi, virtual muhitga emotsional bog'lanish hamda vaqt nazoratining pasayganligini ko'rsatdi. Bu esa kompyuter va internet texnologiyalaridan uzoq muddat foydalanish o'smir shaxsining emotsional holati, kommunikativ faoliyati va ijtimoiy moslashuviga ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Shu bois internetga qaramlikning psixologik xususiyatlarini o'rganish, uni erta diagnostika qilish hamda profilaktik choralarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy



ahamiyat kasb etadi. Internetga qaramlikning oqibatlari shaxsning psixologik, ijtimoiy, emotsional hamda fiziologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, o'smirlik davrida internetdan me'yoridan ortiq foydalanish shaxs rivojlanish jarayonida turli muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Psixologik jihatdan internetga qaramlik emotsional beqarorlik, xavotir, depressiv holatlar, tajovuzkorlik hamda stress darajasining ortishiga olib keladi. Internetga qaram bo'lgan o'smirlarda real hayotdagi muammolardan qochish, virtual muhitda o'zini erkin his qilish va emotsional qoniqishni internet orqali olishga moyillik kuchayadi. Natijada ularda hissiy intellekt, o'zini nazorat qilish va emotsional boshqarish ko'nikmalari sust rivojlanadi.

Ijtimoiy jihatdan esa internetga qaramlik real muloqotning kamayishi, ijtimoiy yakkalanish va kommunikativ qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. O'smirlar tengdoshlari va oila a'zolari bilan jonli muloqotdan ko'ra virtual aloqalarni afzal ko'ra boshlaydilar. Bu esa shaxslararo munosabatlarning buzilishiga, nizoli vaziyatlarning ortishiga va ijtimoiy moslashuvning pasayishiga sabab bo'ladi. Ta'lim faoliyatida internetga qaramlik diqqatning susayishi, xotira jarayonlarining pasayishi hamda akademik o'zlashtirishning yomonlashuviga olib keladi.

O'smirlarning ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o'yinlar yoki virtual platformalarda o'tkazishi natijasida o'quv motivatsiyasi va bilim olishga bo'lgan qiziqishi kamayadi. Fiziologik jihatdan uzoq vaqt kompyuter va telefon ekranidan foydalanish ko'rish qobiliyatining pasayishi, uyqu buzilishlari, bosh og'rig'i, umurtqa pog'onasi bilan bog'liq muammolar hamda jismoniy faollikning kamayishiga olib keladi.

Ayniqsa, tungi vaqtda internetdan foydalanish biologik ritmning buzilishiga sabab bo'lib, organizmning umumiy funksional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, internetga qaramlikning kuchayishi o'smirlarda addiktiv xulq-atvorning boshqa shakllariga moyillikni ham oshirishi mumkin. Shu sababli internetga qaramlikni erta aniqlash, psixoprofilaktik ishlarni tashkil etish hamda o'smirlarda sog'lom axborot madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Psixologlar uchun tavsiyalar

O'smirlarda kompyuter o'yinlariga qaramlik va virtual addiksiyaning dastlabki belgilarini aniqlash maqsadida ta'lim muassasalarida muntazam psixodiagnostik monitoring ishlarini olib borish tavsiya etiladi. O'smirlarning emotsional holati, stressga chidamliligi, kommunikativ faolligi hamda ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlashga qaratilgan psixologik metodikalardan kompleks tarzda foydalanish zarur. Kompyuter o'yinlariga qaram o'smirlar bilan individual va guruh psixokorreksion mashg'ulotlarni tashkil etish, ayniqsa, emotsional barqarorlikni shakllantirish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

2. O'qituvchi va pedagoglar uchun tavsiyalar

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Dars jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, o'quvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, internet resurslaridan maqsadli foydalanish va virtual muhitda o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

3. Ota-onalar uchun tavsiyalar

Farzandlarning kompyuter va internetdan foydalanish vaqtini nazorat qilish hamda kun tartibini to'g'ri tashkil etish tavsiya etiladi. Ota-onalar farzandlar bilan samimiy muloqotni kuchaytirishlari, ularning emotsional holatiga befarq bo'lmasliklari va psixologik qo'llab-quvvatlash muhitini yaratishlari lozim.

4. Umumiy profilaktik tavsiyalar

Ta'lim muassasalarida kompyuter o'yinlariga qaramlik va internet addiksiyasining oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik dasturlarni joriy etish tavsiya etiladi. O'quvchi-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda sport va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam tashkil etish zarur. Media savodxonlik va axborot xavfsizligi bo'yicha maxsus treninglar, davra suhbatlari hamda targ'ibot tadbirlarini o'tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2010-yil.
2. Davletshin M.G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2004-yil.
3. Nishonova Z.T. Pedagogik va yosh psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2006-yil.
4. Gadayeva M.M. "O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari" // Modern Science and Research ilmiy jurnali. – 2024-yil.
5. Kimberly Young. Internet Addiction: Symptoms, Evaluation and Treatment: scientific work. – Pittsburgh, 1999-yil.
6. А. Е. Войскунский. Психологические аспекты деятельности человека в интернет-среде. – Москва: МГУ, 2004.
7. Л. С. Выготский. Психология развития ребенка. – Москва: Эксмо, 2005.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.